

Feld'egerlik xizmati ko'rsatishga

SHARTNOMA № 932022 y. «05» 09.

Nukus shahri.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivoilantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati tog'risidagi Nizom asosida ish ko'ruvchi keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb ataladigan O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati Nukus shahar bulimi nomidan bulimi boshlig'i B.K.Jamalov va keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb ataladigan RP MARRAMANU VA DINAMU KIJINAB
KYBAMMANU BAJARUVCHI C. Tyrachov
ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Shartnoma mavzusi

1.1.«Buyurtmachi»ning jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha, Nukus shahri va Toshkent shahri bo'yicha qabul qilish va yetkazib berilishini ta'minlash shartnoma mavzusi hisoblanadi.

1.2.«Buyurtmachi»ning jo'natmalarni dam olish va bayram kunlaridan tashqari nar kuni soat 09-00 dan 17-00 gacha «Buyurtmachi» yoki «Bajaruvchi»ning binosida qabul qilinadi. Jo'natmalarni Buyurtmaching binosida qabul qilish uchun Buyurtmachi bir kun avval quyidagi (61) 224-54-73, (95) 601-96-20 telefon raqami orqali berilgan buyurtmasi asosida bajariladi.

1.3.«Buyurtmachi»ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi uchun avtotransport berilganligi uchun to'lov, shuningdek har bir jo'natmadan qo'shimcha yig'im undiriladi. Ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun hisob-kitob amaldagi tarifga muvofiq bajariladi.

2. Yetkazib berish sharttari

2.1.«Bajaruvchi» O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarigacha, Nukus shahri va Toshkent shahri bo'yicha jo'natmalarni «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha qo'ldan qo'lga yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi Qoraqalpogiston Respublikasi tumanlarida, viloyat markazidan quyida joylashgan bo'lsa, jo'natmalar maxsus aloqa tarmog'i orqali beriladi.

2.2.Jo'natmalarni yetkazib berish «Bajaruvchi»ning avtotransporti orqali (istisno hollarda «Buyurtmachi»ning avtotransporti orqali), jo'natmalarni oluvchi joylashgan manziliga qarab avia va temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi.

2.3.Zarurat bo'lganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» bilan kelishuv bo'yicha jo'natmalarni yo'nalish doirasidan tashqari -feld'egerlar bilan (narochno) yuborishi mumkin. Bunda «Buyurtmachi» amaldagi xarajatlarni tarifga muvofiq to'laydi.

2.4.«Buyurtmachi»ning jo'natmalari bo'lmaganda yoki jonatmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'lmaganda, feld'egerning nazorat varag'iga «jo'natmalar yo'q» degan belgi qo'yiladi va «Buyurtmachi»ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu holatda amaldagi tarifga binoan transport xarajatlari uchun haq to'lanadi.

2.5.«Bajaruvchi» jismoniy shaxslarga, hamda bozorlar, savdo komplekslar yoki turar joylar (uylar) joylashgan manzillar bo'yicha yo'naltirilgan jo'natmalarni qabul qilmaydi va yetkazib bermaydi.

3. Shartnoma summasi va uni to'lash tartibi

3.1. Shartnomaning umumiy summasi 450000 (Tuzilgan umumiy summa)

so mni tashku etadi.

3.2. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ning hisob-kitob raqamiga umumiy summaning 30 foizi miqdorida oldindan haq tolaydi. Umumiy summaning qolgan qismi haqiqiy ko'rsatilgan xizmatlar uchun yil davomida to'lanadi. QQS hisoblanmaydi.

3.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq amaldagi tarif asosida taqdim etilgan hisob fakturaga asosan joriy oyning 10-kunigacha to'lanadi.

Ko'rsatiladigan xizmatlarga tasdiqlangan tarif shartnomaga ilova qilmadi.

4. «Bajaruvchi»ning huquq va majburiyatlari

4.1. «Bajaruvchi» jo'natmalarni qabul qilib olingan paytdan ular oluvchiga topshirilgan paytgacha jo'natmalarning saqlanishini ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. «Bajaruvchi» «Buyurtmachining» jo'natmalarini, oluvchilar joyida bo'lgan, ko'rsatilgan manzildan ko'chib ketmagan, oluvchilar bozorlar, savdo komplekslar yoki turar joylarda (uylarda) joylashmagan hollarda, Toshkent shahri va O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha 72 soat mobaynida yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, dam olish va bayram kunlari bundan mustasno.

4.3. Tariflar o'zgargan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga yangi tasdiqlangan tariflarni o'z vaqtida yuborish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun yangi tariflarga binoan hisob-kitob qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.4. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» dan qabul qilayotgan jo'natma nostandart, yoki katta og'ir yoki shubhali bo'lgan hollarda jo'natmani «Buyurtmachi»ning vakili ishtirokida ochib ko'rish huquqiga ega.

4.5. «Bajaruvchi» zaruriyatga ko'ra «Buyurtmachi»dan «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki tegishli organlar tomonidan rasmiylashtirilgan mazkur jo'natmani olib chiqishga ruxsatnoma talab qilish huquqiga egadir.

4.6. «Bajaruvchi» yetkazib beriladigan jo'natmalarni qo'riqlash tartibini, shuningdek yuborilayotgan jo'natmalarni turlari va cheklangan normalarni ishlab chiqishi va belgilashi hamda tashishlarning navbatma-navbatligini belgilash huquqiga egadir.

5. «Buyurtmachi»ning huquq va majburiyatlari

5.1. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan maxfiy jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasining maxfiy ish yuritish talablariga muvofiq rasmiylashtirishga majburdir.

5.2. «Buyurtmachi» maxfiy bo'lmagan paketdagi jo'natmalarni xalqaro pochta standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi shart (konvertning chap yuqori burchagida: jo'natuvchining no mi, uning manzili, shahar, respublika; konvertning o'ng quyiqismida: oluvchining nomi, uning manzili, shahar, davlat, telefon), manzil ko'rsatkichidan oldin «Qaerdan» va «Qaerga» («Kimga») so'zlarini yozishi kerak.

5.3. «Buyurtmachi» manzilga oid ma'lumotlarni va paketlardagi boshqa yozuvlarni yozuv mashinkasida bosmaxona usulida, siyoh yoki sharikli ruchka bilan aniq va tushunarli qilib (siyoh yoki pasta qora, ko'k yoki binafsha rangda bo'lishi kerak) yozishi shart. Oluvchining manzili qisqartirilmasdan yozilishi zarur.

5.4. Paketningorqa tomoniga «Buyurtmachi» konvert yelimgan chiziq bo'yicha barcha qopqoqlarda o'zining mastika muhri ottiskini qo'yishi shart. Paketli jo'natmalai MDH Davlatlariga 2 kg, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 5 kg 11x15 sm 15x25 sm 25x35 sm dan oshmasligi lozim. Qog'ozli yukli jo'natmalarni cheklangan og'irligi 10 kg. Bo'linmaydigan yaxlit jo'natmalar 20 kg gacha bo'lishi kerak. Qopli yukli jo'natmalarni cheklangan og'irligi 10 kg. Bo'linmaydigan yaxlit jo'natmalarniki 20-25 kg gacha bo'lishi lozim.

5.5. Ushbu shartnomaning 4.4. bandida ko'rsatilgan hollarda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» talabiga ko'ra jo'natmani muxrlashdan oldin ochib ko'rsatishi shart.

5.6. Yuridik manzillar, bank rekvizitlari, telefon raqamlari o'zgargan taqdirda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

5.7. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa, «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga jo'natmalarni qabul qilish uchun alohida jo'natmalar bilan ishlashga moslashtirilgan xona bilan ta'minlashi zarur.

5.8. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa «Buyurtmachi» bir sutka oldin «Bajaruvchi»ga buyurtma berishi kerak.

5.9. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan jo'natmalarning og'irligini o'zi tortib ko'rish va reestrlarda shaxsan qayd etish huquqiga egadir.

5.10. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» tomonidan jo'natmalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotnoma so'rash huquqiga egadir.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Jo'natmalar o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga o'z vaqtida yetkazib berilmagan jo'natmalarning har bir kechiktirilgan kuni uchun 0,5foiz, biroq o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan jo'natmalar umumiy summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.2. Yuborilayotgan jo'natmalarga «Bajaruvchi»ning aybi bilan zarar yetkazilgan taqdirda «Bajaruvchi» qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.3. «Bajaruvchi» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lanmaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lamaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7. Taqiqar

7.1. Quyidagilar taqiqlanadi:

Mazkur Shartnomaning 5.1,5.2,5.3,5.4-bandlarida ko'rsatilgan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan jo'natmalarni jo'natish.

«Bajaruvchi» orqali kontrabanda, radioaktiv, zaharlovchi, portlash xavfi bo'lgan. tez alanganadigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan boshqa moddalar va buyumlarni jo'natish.

8. Fors-major

«Bajaruvchi» fors-major holatlarda jo'natmalar yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki shikastlanganligi uchun javob bermaydi, aynan:

8.1. Suv toshqini, yong'in, zilzila bo'lganda va boshqa tabiiy ofatlarda;

8.2. «Bajaruvchi»ning xodimi halok bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlarda;

8.3. Mazkur Shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan moddalar va buyumlar «Bajaruvchi» orqali jo'natilganda yoki kontrabanda va taqiqlangan tijorat jo'natmalari vakolatli organlar tomonidan hibsga olinganda yoki musodara qilinganda;

8.4. Noqulay meteorologiya sharoitlarida va havo kemasining texnik nosozligida.

8.5. Fors-major holatlarda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ni yozma ravishda xabardor qiladi.

9. Nizolarni hal etish

Mazkur Shartnoma bajarilishi bilan bog'liq barcha nizolar mumkin qadar tomonlarning muzokaralar olib borishi yoxud davo xati jo'natish yo'li bilan hal etilishi kerak.

Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda nizolarni hal etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida amalga oshiriladi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati

Mazkur _____ Shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 25.01. dan 2022 yil 31.12. gacha amal qiladi.

10.2. Tomonlardanbiri Shartnoma muddati tugashidan 30 kalendar kun oldin shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi Tomonni ogohlantirmasa, Mazkur Shartnoma yana bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning uzaytirilish soni chegaralanmagan.

10.5. Mazkur Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10.6. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi, ularning har ikkalasi bir xil yuridik kuchga ega.

Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va telefonlari

«BAJARUVCHI»

Qoraqalpo g'iston Respublikasi,
Nukus shahri, Chimboy guzori
ko'chasi r/z uy.

Tel: 95-601-96-20, 61-224-54-73

Faks: 61-224-56-21.

r/s. 21506000100314660001.

QR Markaziy bank. RKS MFO 00015.

INN. 200357959. OKED. 53200.

DFX Bo'lim boshli g'i

B.K.Jamalov. foh

Yurist. foh



Muhr urni.

«BUYURTMACHI»

KP Maxanna Baxramova 15-y. Gajurimov
Нукус шаҳри У.Каримов йўли
Тел: 61-222-00-94

23402000300100001010

KP Baxramova Baxramovich

UKH 207316283 OK2D 84112

MFO 00015

70002186354097011906259001



С.Турмунов

Yurist. _____

2022 y. «__» _____

Muhr urni.



05.01.2022 даги

Нукусский отд. Гос. фельдъегерской службы Уз агентство связи и инфор ва Коракалпогистон Республикаси
Махалла ва онлани куллаб-куватлаш вазирлиги ўртасида 450000,00 сўм умумий суммага тузилган 93 -
сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб _____ 259 _____
Шахсий газна ҳисобварак _____ 100021860354017011906259001 _____

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4292100			
Январь	150 000,00			150 000,00
Февраль	150 000,00			150 000,00
Март	150 000,00			150 000,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	450 000,00			450 000,00

Жами 450000,00 сўм

Уч юз минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан _____ сўм ёки _____% *** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 _____ ойда тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойда _____% жорий ойнанинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари _____

М.Ў.



Турманов Сағиндык Турганбаевич _____

Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери _____

Сапарбаев Мийрбек Тажибаевич _____

Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди _____

Буюртмачи ходими
қабул қилди _____

(имзо)

(имзо)

«__» _____ 20__ й.

«__» _____ 20__ й.